

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

MAHALLALARDA YOSHLAR BILAN ISHLASH, YOSHLAR YETAKCHISI LAVOZIM MAJBURIYATLARI ILMIY NAZARIY ASOSLAR.

Qosimov Azimjon Sanaqul o‘g‘li JDPU
Maktab menejmenti kafedrari o‘qituvchisi
azimjonqosimov@gmail.com

ANNOTATSIYA Mahallalarda yoshlar yetakchilarining lavozim xususiyatlari hususan O‘zbekistonda yoshlar yetakchilarining roli o‘rganilib, ushbu pozitsiyalarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy manzarasidagi ahamiyati muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Aholisining 60 foizga yaqini yoshlardan iborat bo‘lgan O‘zbekiston o‘zining yosh yetakchilarini millat taraqqiyotida faol ishtirok etishi uchun tarbiyalash va salohiyatini oshirishga katta ahamiyat beradi. Ushbu maqola O‘zbekistondagi yoshlar yetakchilarining lavozim tuzilishi, mas’uliyati, muammolari va potentsial ta’sirini ko‘rib chiqadi va ularning ijobiy o‘zgarishlar katalizatori sifatidagi roli haqida tushuncha beradi.

Kalit so‘zlar: Mahalla, qaror, yoshlar, yetakchi, o‘z-o‘zini boshqarish, rivojlanish, dastur, qadryatlar, vatanparvarlik

ABSTRACT The characteristics of youth leaders' positions in local communities, specifically in Uzbekistan, are studied, highlighting the significant role of these positions in the country's socio-political landscape. With nearly 60% of Uzbekistan's population being young, the country places great importance on training and enhancing the potential of its youth leaders to actively participate in the nation's development. This article examines the organizational structure, responsibilities, challenges, and potential impact of youth leaders in Uzbekistan, offering an understanding of their role as catalysts for positive change.

Keywords: Neighborhood, decision, youth, leader, self-management, development, program, values, patriotism.

KIRISH O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil qilganayotgan islohotlar mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari mahalla fuqarolar yig‘inida ham bir qator islohotlarga va yechimini topishi lozim bo‘lgan masalalarga alohida to‘xtalib o‘tiladi. Mahallada bugungi kunda yoshlar yetakchisi, hokim yordamchisi va boshqa bir qator muhim lavozimlar joriy etilgan bo‘lib ularning barchasi mahalla uning nufuzi mavjud muammolari va ularga yechim topish maqsadida muhim topshiriq va majburiyatlar belgilab berilgan deyishimiz mumkin. Amalga oshirilayotgan va shakillintirilayotgan barcha tuzilmalar uchun lavozim va xizmat vazifalari belgilab berilgan shular jumlasidan quyidagi lavozim va

uning xizmat vazifalariga alohida to‘xtalib o‘tishni joiz deb bildim. Dastlab mahalla tushunchasi va uning mazmun mohiyati hususida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak Mahalla – inson aql-zakovatining mahsuli bo‘lib, tabiat va jamiyatlardagi hodisalarni kuzatish asosida odamlarning bir-biriga bo‘lgan ishonchi hamda munosabatlari madaniy taraqqiyotining rivojlanishiga imkoniyat yaratib aql va idrok bilan ish yuritishni ta‘minlagan.

“Mahalla” so‘zi arabcha “mahallun” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, aholi yashaydigan joy, guzar, uy-joy mavzelari degan ma‘noni bildiradi. Mahallalar shahar ichidagi aholi yashaydigan[1:11] manzilgoh, guzardir.

Mahalla o‘tmishdan meros bo‘lib kelmoqda. Mahallalarda istiqomat qiluvchi odamlar faqat qo‘ni-qo‘shnichilik rishtalari bilangina emas, balki ichki tartib-qoida, ma‘naviyat, axloqiy normalar va majburiyatlar bilan chambarchas bog‘langan holda hayot kechirishmoqda. Shu bilan birgalikda mahalla - uning a‘zolarini yagona oilaga birlashtiruvchi o‘ziga xos tarbiya maskani hamdir. Qadim zamonlardayoq mahallaga el ishonchini, hurmatini qozongan oqsoqollar, uning maslahatgo‘ylari boshchilik qilib kelishgan. Katta-kichikning boshini qovushtirib, mahalladoshlarning og‘irini yengillashtirish, ularning to‘y, ma‘rakalari, rasm-rusumlarini o‘tkazishga, ro‘zg‘or buyumlari bilan ta‘minlashga bosh-qosh bo‘lishgan. Mahalla oqsoqollari oilaviy nizolarni bartaraf etishga, qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasidagi nizolarni bartaraf qilishga hakamlilik qilishgan.

Yoshlarni tarbiyalashda, ularga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishgan. Mahallada har qanday marosimlar ko‘pchilikning sa‘y-harakati bilan amalga oshirilgan. Bas, shunday ekan, mahalla azaldan[2:126] kishilarning ezgulik va o‘zaro mehr-oqibat maskani bo‘lib xizmat qilgan. Shunday ekan mahallalarda yoshu- qari mavjud muammo va yechimini topishi lozim bo‘lgan holatlarni mahalla raisi, yoshlar yetakchisi deyarli mahallada faoliyat olib borayotgan yettilikning muhim vazifasi bo‘lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI Ushbu maqolaning mazmun mohiyatini yoritishda 2023-yil 8- avgust sanasida “QarDu xabarlar” jurnalida nashr etilgan Mustaqillik yillarida Jizzax viloyati mahallalari hamda bir qator qonun va qonun osti hujjatlarida va prezidentimizning farmon va qarorlarida, Vazirlar mahkamasining qarorlarida aks etgan ma‘lumotlar asosida shakillantirildi. Hususan 1.Qosimov A. Mustaqillik yillarida Jizzax mahallalari “QarDU xabarlar” jurnali 4/2(60) 2023-yil Iyul–avgust oylari

“Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish to‘g‘risida” O‘RQ-406-son Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2020-yil 30-iyundagi PQ-4768-son, “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-sentabrdagi 550-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to‘g‘risida” gi qonun va normative hujjatlar muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qaroriga muvofiq, mahalladagi yoshlar yetakchisining asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, vakolatlari va javobgarligi belgilab berilgan. Ushbu qaror asosida yoshlar yetakchisi va uning hizmat vazifasiga oid nizom yoriqnoma ishlab chiqilgan. [2022.19.01 PQ-92-son]. Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish maqsadida har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etiladi.

Mahalladagi yoshlar yetakchisining namunaviy lavozim yo‘riqnomasi quyidagilarni o‘zida qamrab oladi:

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining har bir ma‘muriy hududiy birligida mahala fuqarolar tizimi faoliyat yuritadi va unda yoshlar yetakchisi shatat birligi joriy etilgan bo‘lib hususan yoshlar yetakchisi “Yoshlar balansi”ni shakllantirish, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma‘lumotlarni “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portali” elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish; mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o‘yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma‘rifiy tadbirlarni amalga oshirish; yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste‘dodi va tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish; yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma‘naviy rivojlanishini ta‘minlash; huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlar bilan tizimli ishlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko‘maklashish. Ushbu yuqorida qayd etilgan vazifalar har bir yoshlar yetakchisining muhim xizmat vazifasi bo‘lib hisoblanadi. Barcha xizmat vazifalarida bo‘lgani kabi yoshlar yetakchisi lavozimida ham o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalami amalga oshiradi. [O‘RQ-406-son]

“Yoshlar balansi”ni shakllantirish, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma‘lumotlarni “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portali” elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish sohasida, mahallada uyma-uy yurib, yoshlar bilan bevosita va bilvosita muloqot qilish orqali yoshlar balansiga oid ma‘lumotlarni to‘liq va to‘g‘ri shakllantiradi. Ushbu masalani amalga oshirish maqsadida 14-30 yoshli mahallada yashayotgan yoshlar qatlami va uning muammlarini o‘rganish va ularga amaliy yechim berish uchun har bir honadon uyma-uy o‘rganiladi. Mahalladagi yoshlar tomonidan bildirilgan taklif va murojaatlarni “Yoshlar portali” elektron platformasiga kiritib boradi va ularga ushbu portal holati va buning maqsadi va vazifalari hususida amaliy ko‘nikmalar shakllantiriladi buning sababi shundan ibortaki ushbu tizimga kiritilgan ma‘lumotlar hudud balki Respublika miqiyosida muammo o‘rganilishiga va yechimini topilishiga sabab bo‘ladi; [PF-6017-son farmoni]

Mahalladagi “Yoshlar daftari”ga kiritilishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy psixologik muammosi bor va ishsiz yoshlar ro‘yxatini shakllantirib boradi, mahalla yoshlari bilan davlat organlari va tashkilot rahbarlarining uchrashuvlarini tashkil etishga ko‘maklashadi har bir mahalla yetakchisi mavjud holatdan kelib chiqqan holda hudud rahbarlari tuman shahar hokimlari va sektor boshliqlari bilan iqtisodiy ijtimoiy jihatdan muammosi bo‘lgan yoshlarni muammolarini tinglash va yechim qilish maqsadida davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil qilinadi; Yoshlarning tadbirkorlik g‘oyalarini amalga oshirish, ular faoliyatiga kredit, subsidiya va boshqa yordam choralarini jalb qilish bo‘yicha mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlar bandligini ta‘minlash masalalari bo‘yicha hokim yordamchisi bilan hamkorlik qiladi. Bunda eng muhim masala ushbu toifaga kiruvchi yoshlar qatlamini aniqlab olish eng muhim masala bo‘lib hisoblanadi, sababi bu toifaga mahalladi barcha yoshlar ham kiritilmasligi mumkin mahalladi yoshlar Online mahalla.uz sayti orqali ishsizligi va haqiqatdan ham yordam va ko‘makga muhtojligi bo‘lgan yoshlar ariza qoldirishlari mumkin. Ushbu tizim orqali qoldirilgan arizalarni ko‘rib chiqish mahalla yoshlar yetakchisi va mahalladagi hokim yordamchisining muhim funksional vazifasi hisoblanadi.

Tizim orqali ariza qoldirish imkoniyati mavjudligi ushbu tizim orqali javob berilishiga mavjud holatni uyga ya‘ni murojaatchining uyiga yashash manziliga borgan holda o‘rganilishiga sabab bo‘ladi. Ushbu holat o‘rganilgandan so‘ng esa hokim yordamchisi unga subsidiya va tadbirkorlik faoliyati uchun imtiyozli kredit berish mumkinligi to‘g‘risda ruxsat beradi.[2020-yil 30-iyundagi PQ-4768-son]

Mahallada yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o‘yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma‘rifiy tadbirlarni amalga oshirish sohasida: mahallada yoshlarni madaniy hordiq chiqarishlari uchun tizimli targ‘ibot tadbirlarini tashkil etadi; ta‘lim muassasalari bilan birgalikda, faol mahalla yoshlarini jalb qilgan holda yoshlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish, ularni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash va kamol toptirish, keksalarga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma‘naviy-ma‘rifiy, tarbiyaviy loyihalar va ko‘rik-tanlovlarni amalga oshiradi; mahalla yoshlari istiqomat qilayotgan hududdagi tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar, muzeylar, teatrlar, mustaqillik davrida barpo etilgan inshootlarga tashriflarni uyushtiradi; mahalla hududida joylashgan umumiy o‘rta ta‘lim maktablari bilan hamkorlikda maktab imkoniyatlaridan, jumladan kompyuter xonalari, kutubxona, sport zallari va maydonlaridan darsdan tashqari vaqtlarda yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etadi; [2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qarorlari]

3. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste‘dodi va tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish sohasida: mahalla yoshlarining intilishi va qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy faolligini oshirish, qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga ko‘maklashishga qaratilgan ko‘rgazmalar, ijodiy uchrashuvlar tashkil etish choralarini ko‘radi; mahallada o‘tkaziladigan madaniy, ma‘naviy, vatanparvarlik tadbirlarida hamda sport musobaqalarida

ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarni jalb etadi; ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlardan samarali foydalanish bo‘yicha Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida targ‘ibot ishlarini amalga oshiradi; hududlardagi IT-parklar va Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlaridagi “IT” o‘quv kurslarida yoshlarning o‘qishini targ‘ibot qiladi;

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma‘naviy rivojlanishini ta‘minlash sohasida: mahalla yoshlari o‘rtasida intellektual o‘yinlarni rivojlantirishga qaratilgan ishlarni amalga oshiradi; mahalla, qishloq, tuman va viloyatlar tarixini o‘rganish bo‘yicha suhbatlar tashkil etadi; Vatanimiz mustaqilligini himoya qilish yo‘lida jon fido qilgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining ko‘rsatgan jasorati, qahramonligi va mardligini o‘quvchi-yoshlar va uyushmagan yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qiladi; mahallada voyaga yetib, turli sohalarda mamlakatimiz rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan va faoliyatida yuksak muvaffaqiyatlarga erishgan bugungi kun qahramonlari bilan uchrashuvlar tashkil etadi; yoshlarning ongu-shuuriga Vatanga sadoqat, fidoyilik va yurt taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarini audio va video targ‘ibot materiallaridan foydalangan holda tashkil etadi; mahalladagi yoshlar o‘rtasida harbiy vatanparvarlikni targ‘ib etish bo‘yicha tuman (shahar) mudofaa bo‘limlari va harbiy qismlari bilan hamkorlik qiladi; mahalladagi yoshlar o‘rtasida tinchlikning qadriga yetish, Vatanni himoya qilish sharaflı burch ekanligini targ‘ib qilishga, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan turkum tadbirlarni tashkil etish choralarini ko‘radi. [VM 550-son qaror]

Huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko‘maklashish sohasida: yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan choralarni ko‘radi; mahalladagi profilaktika inspektori bilan hamkorlikda: huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlar bilan tizimli ishlarni tashkil etadi; jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoshlar bilan ishlaydi; ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko‘maklashadi; reytd tadbirlarida aniqlangan yoshlarning (muntazam dars qoldiruvchilar, tarbiyasi og‘ir yoshlar, kam ta‘minlangan) otalari bilan profilaktik ogohlantiruv tadbirlarini amalga oshirish choralarini ko‘radi; probatsiya xizmati hisobida turadigan yoshlar bilan muntazam shug‘ullanib, ularning bandligini ta‘minlash, tadbirkorlikka jalb etish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga ko‘maklashadi; yoshlar ongida korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni, qonun ustuvor, jazo muqarrar ekanligini tushuntirishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini amalga oshiradi.

XULOSA Mahallalarda yoshlar bilan ishlashda yoshlar yetakchisi lavozimi, o‘zining ma‘lum majburiyatlari va mas‘uliyatlari bilan yoshlarning ijtimoiy hayotiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Yoshlar yetakchisi, nafaqat yoshlarning manfaatlarini himoya qilish, balki ularni

jamiyatga foydali fuqarolar sifatida tarbiyalashda ham muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jarayonda ilmiy-nazariy asoslar yoshlar bilan ishlashning samarali va natijali usullarini belgilaydi.

Maqolada aytib o‘tilgan ilmiy-tadqiqotlar va nazariy qarashlar, yoshlar yetakchisining vazifalarini va metodologiyasini aniqlab beradi. Bunda yoshlarning jismoniy, ruhiy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash, ular uchun ijtimoiy muhiti yaratish, ularni ishtirokchilikka jalb qilish va yetakchilik sifatlarini rivojlantirish alohida e'tiborda bo'lishi kerak.

Shuningdek, yoshlar yetakchisi o‘z faoliyatini aniq va tizimli tarzda olib borishi, innovatsion g‘oyalar va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlashi zarur. Mahallalarda yoshlar bilan ishlash jarayonida, o‘zaro muloqot va hamkorlikka alohida e'tibor qaratilishi, yoshlar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatilishi kerak. Ma'naviy-axloqiy tarbiya, ilmiy-ta'limiy ishlanmalar, shuningdek, yoshlarning huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish, ular uchun ijtimoiy-siyosiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida, yoshlar yetakchisi lavozimining majburiyatlari nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham yoshlar bilan ishlashning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mahallalar, yoshlar uchun o‘zlarini anglash, jismoniy va ma'naviy rivojlanish uchun zarur muhitni taqdim etishi kerak. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun yoshlar yetakchilarining bilim va tajribalarini muntazam ravishda takomillashtirib borish zarur.

FOYDALANILGAN ASOSIY HUUJATLAR

1. Qosimov A. Mustaqillik yillarida Jizzax mahallalari “QarDU xabarlar” jurnali 4/2(60) 2023-yil Iyul–avgust oylari
2. Haydarov H., Usmonov Q. Jizzax tarixi (Jizzax shahri haqida tarixiy lavha va xotiralar). – T.: O‘qituvchi, 2009.
3. Bo‘riev O., Saidov B. Mahalla – milliy tarixiy instituti. – Toshkent: Yangi nashr, 2012.
4. “Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish to‘g‘risida” O‘RQ-406-son Qonuni
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son Farmoni
6. “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2020-yil 30-iyundagi PQ-4768-son
7. “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qarorlari
8. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-sentabrdagi 550-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to‘g‘risida”